ORGANISATION OF ISLAMIC COOPERATION
RESEARCH CENTRE FOR ISLAMIC HISTORY, ART AND CULTURE

ИСЛОМ ҲАМКОРЛИГИ ТАШКИЛОТИ
ИСЛОМ ТАРИХИ, САНЪАТИ ВА МАДАНИЯТИНИ ТАДҚИҚ ЭТИШ МАРКАЗИ

UZBEKISTAN ACADEMY OF SCIENCES
AL-BIRUNI INSTITUTE OF ORIENTAL STUDIES

ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИ ФАНЛАР АКАДЕМИЯСИ АБУ РАЙҲОН БЕРУНИЙ НОМИДАГИ ШАРҚШУНОСЛИК ИНСТИТУТИ

Proceedings of the International Conference Dedicated to the Memory of Academician Ubaydulla Karimov

New Perspectives for the Study of Islamic Culture, History and Art in Uzbekistan

May 2021, Tashkent

Ўзбекистонда ислом маданияти, тарихи ва санъатини ўрганишнинг янги истиқболлари

мавзуидаги академик Убайдулла Каримов хотирасига бағишланган
2021 йил май ойида Тошкентда бўлиб ўтган
халқаро конференция мақолалари тўплами

Istanbul 2021



OIC Organisation of Islamic Cooperation
IRCICA Research Centre for Islamic History, Art and Culture

Alemdar Cd., No 15, Bâbıâli Girişi
34110 Cağaloğlu, İstanbul, Türkiye
PHONE +90 212 402 00 00
FAX +90 212 258 4365
ircica. org
ircica@ircica. org

PROCEEDINGS OF THE INTERNATIONAL CONFERENCE DEDICATED TO THE MEMORY OF ACADEMICIAN UBAYDULLA KARIMOV
NEW PERSPECTIVES FOR THE STUDY OF ISLAMIC CULTURE, HISTORY AND ART IN UZBEKISTAN

SOURCES AND STUDIES ON THE HISTORY OF ISLAMIC CIVILISATION SERIES; NO. 50

© COPYRIGHT | IRCICA 2021
ISBN 978-92-9063-400-3
İSTANBUL 2021

CATALOGUING IN PUBLICATION DATA

New Perspectives for the Study of Islamic Culture, History and Art in Uzbekistan (2021: Tashkent, Uzbekistan)
Proceedings of the International Conference Dedicated to Memory of Academician Ubaydulla Karimov: New Perspectives for the Study of Islamic Culture, History and Art in Uzbekistan, May 2021: Tashkent=Ўзбекистонда ислом маданияти, тарихи ва санъатини ўрганишнинг янги истиқболлари мавзуидаги академик Убайдулла Каримов хотирасига бағишланган 2021 йил май ойида Тошкентда бўлиб ўтган халқаро конференция мақолалари тўплами / edited by Mahmud Erol Kılıç and Bakhrom Abdukhalimov; prepared for publication by Ashirbek Muminov… [et al.].- Istanbul: Research Centre for Islamic History, Art and Culture, 2021.
758 p.: col. ill.; 25 cm.- (Sources and studies on the history of Islamic civilisation series; no. 50)
Includes bibliographical references.
Text in English, Uzbek, Turkish and Russian
ISBN 978-92-9063-400-3
1. Islam--Study and teaching--Congresses. 2. Uzbekistan--History--Congresses. 3. Islamic civilization--Uzbekistan--Congresses. 4. Karimov, Ubaydulla, 1920-1997--Congresses. I. Kılıç, Mahmud Erol, 1961- II. Abdukhalimov, Bakhrom. III. Muminov, Ashirbek. IV. Title. V. Series.
958.7--dc22

EDITED BY: Prof. Mahmud Erol Kılıç, Prof. Bakhrom Abdukhalimov
PREPARED FOR PUBLICATION BY: Prof. Surayyo Karimova, Khilola Nazirova, Prof. Ashirbek Muminov, Fatma Yekta İnci Zülfikar
BOOK DESIGN: Selahaddin Uygur
PRINTING AND BINDING: Optimum Basım

Мундарижа

КИРИШ **17**
ПРОФЕССОР МАҲМУД ЭРОЛ ҚИЛИЧ

ЎЗБЕК ШАРҚШУНОСЛИГИНИНГ ФАХРИ **19**
ПРОФЕССОР БАХРОМ АБДУРАҲИМОВИЧ АБДУҲАЛИМОВ

Summary
ХУЛОСА **25**

АКАДЕМИК УБАЙДУЛЛА ҚАРИМОВ ТАДҚИҚОТЛАРИНИНГ ЎЗБЕКИСТОН ШАРҚШУНОСЛИГИДАГИ ЎРНИ **27**
СУРАЙЁ УБАЙДУЛЛАЕВНА КАРИМОВА

БЎЛИМ I. ТАРИХИЙ МАНБАШУНОСЛИК
“ЗИЖ”ЛАРНИНГ РОЛИ ВА УЛАРНИНГ ТАРИХИЙ АҲАМИЯТИ **41**
БОТИРЖОН ҚОСИМОВИЧ АБДУЛЛАЕВ

ТУРКИСТОНДА НАШР ЭТИЛГАН АДАБИЁТЛАРДА ЎЛКА МАДАНИЙ ҲАЁТИГА ЁНДАШУВ (1918–1924 йиллар) **49**
ГУЛЧЕҲРА ЎРОЗАЛИЕВНА АБДУЛҲАЙ

ИЗ ИСТОРИИ УЧРЕЖДЕНИЯ ВЕТЕРИНАРНОЙ СЛУЖБЫ В ТУРКЕСТАНСКОМ ГЕНЕРАЛ-ГУБЕРНАТОРСТВЕ **59**
ХУШНУД АБДУЛЛАЕВИЧ АБДУРАСУЛОВ

ВОБКЕНТДАГИ “МИР ХУРД ВА МИР КАЛОН” МАДРАСАСИ ВАҚФНОМАЛАРИ **65**
МАҲФУЗА РАВШАНОВНА АБДУВАҲОБОВА

КОЛЛЕКЦИИ РЕДКИХ КНИГ И РУКОПИСЕЙ В КАЗАХСТАНЕ **71**
ГУЛЬШАТ МАСАЛИМОВНА АБИКОВА

ПОХОД АЛЕКСАНДРА БЕКОВИЧА-ЧЕРКАССКОГО В ТРУДАХ В. В. БАРТОЛЬДА **77**
ЖАМШИД ҲАСАН ЎҒЛИ АДИЛОВ

АКТИВНЫЕ ОПЕРАЦИИ МАРГЕЛАНСКОГО ОТДЕЛЕНИЯ РУССКО-АЗИАТСКОГО КОММЕРЧЕСКОГО БАНКА **83**
БАХТИЁР АБДИХАКИМОВИЧ АЛИМДЖАНОВ

АКТИВНЫЕ ОПЕРАЦИИ ТАШКЕНТСКОГО ОТДЕЛЕНИЯ АЗОВСКО-ДОНСКОГО КОММЕРЧЕСКОГО БАНКА **89**
БАХТИЁР АБДИХАКИМОВИЧ АЛИМДЖАНОВ, ШОХРУХ ХОЛТУРА УГЛИ ЧОРИЕВ

ИСТОКИ РОССИЙСКОЙ ПОЛИТИКИ В СРЕДНЕЙ АЗИИ **95**
АРТЕМ АЛЕКСЕЕВИЧ АНДРЕЕВ

MÂVERÂÜNNEHİR'İN İSLÂM MEDENİYETİNDEKİ YERİ VE ÖNEMİ **101**
OSMAN AYDINLI

ТУРКИСТОН ГЕНЕРАЛ-ГУБЕРНАТОРЛИГИНИНГ МУСУЛМОН МАКТАБ ВА МАДРАСАЛАРИГА ДОИР ДАВЛАТ СИЁСАТИНИНГ ЎРГАНИЛИШИ (1867-1917) **121**
МУҲАММАДЖОН САМАТОВИЧ АЗИМБАЕВ

ҚАДИМГИ МАРКАЗИЙ ОСИЁ ВА ХИТОЙ ЎРТАСИДА ИЛК СИЁСИЙ ДИПЛОМАТИК МУНОСАБАТЛАРГА ОИД МАЪЛУМОТЛАР (Хитой манбалари асосида) **131**
ХУРШИД ҲАКИМОВИЧ АЗИМОВ

МУСУЛЬМАНСКИЕ НАДПИСИ ЮЖНОГО ИССЫК-КУЛЬЯ **137**
КАЙРАТ БЕЛЕК

БУХОРОДАГИ "ТАРИХИ АНЖУМАН" ЖАМИЯТИ ФАОЛИЯТИ ТАРИХИДАН **143**
АЪЗАМ ҲОМИДОВИЧ БОЛТАЕВ

ИБН СИНО АСАРЛАРИНИ КАТАЛОГЛАШТИРИШ ТАЖРИБАСИДАН (Туркия қўлёзма фондлари мисолида) **149**
АФТОНДИЛ С. ЭРКИНОВ, САИДАКБАР А. МУҲАММАДАМИНОВ

ЗУЛЛИСОНАЙН ШОИР-ҲУКМДОРЛАР СУЛТОН СУЛАЙМОН I ҲАМДА АМИР УМАРХОН ФАОЛИЯТИНИНГ ЎХШАШ ВА ФАРҚЛИ ЖИҲАТЛАРИ **155**
САЛИМАХОН НИШОНБЕК ҚИЗИ ЭШОНОВА

О СИМВОЛАХ ВЛАСТИ ГОСУДАРСТВА НАДИР ШАХА АФШАРА **165**
НИГЯР РОВШАН ГЫЗЫ ГЕЗАЛОВА

БУХОРОДА ИСЛОҲОТЧИЛИК ҲАРАКАТИНИНГ ВУЖУДГА КЕЛИШИДА ТАТАР МАЪРИФАТПАРВАРЛАРИНИНГ ТУТГАН ЎРНИ **175**
ДИЛНОЗА МУЙИДИНОВНА ЖАМОЛОВА

ТИББИЙ АНТРОПОЛОГИЯДА ХАЛҚ ТАБОБАТИНИНГ КЛАССИФИКАЦИЯСИ **183**
ХУРШИД СИРОЖИДДИНОВИЧ ЖУМАНАЗАРОВ

РАЗВИТИЕ ТОРГОВО-ЭКОНОМИЧЕСКИХ ОТНОШЕНИЙ ОСМАНСКОЙ ИМПЕРИИ С РОССИЙСКОЙ ИМПЕРИЕЙ В ПЕРИОД ТАНЗИМАТА (в 30-60-х гг. XIX в.) **191**
АЛМАЗ МУСАЕВНА ИСМАИЛОВА

БУХОРО АМИРЛИГИ ВАҚФ МУЛКЛАРИ ИЖАРАСИГА ДОИР АЙРИМ МУЛОҲАЗАЛАР (1800-1920) **201**
НАРГИЗА АДҲАМОВНА ИСМАТОВА

"ПЕТЕРБУРГСКИЙ ЛИСТОК" HAMDA "МОСКОВСКИЙ ЛИСТОК" GAZETALARIDAGI TASVIRIY-FOTO ILLYUSTRATSIYALAR – DIPLOMATIK MUNOSABATLAR TARIXINI O'RGANISH MANBASI **209**
OYBEK ABDURASULEVICH KLICHEV

TŪ-JUÉ WÁNG Ā-YÉ (突厥王阿耶) – ОТЕЦ ТЮРКСКОГО ПРАВИТЕЛЯ ИЛИ ТЮРКСКИЙ ПРАВИТЕЛЬ А-Е? **215**
АНДРЕЙ ВИКТОРОВИЧ КУБАТИН, ФЕРУЗА ДЖУМАНАЗАРОВНА ДЖУМАНИЯЗОВА

БУХОРО АМИРЛИГИНИНГ ЕВРОПА ВА АМЕРИКА МАМЛАКАТЛАРИ БИЛАН САВДО АЛОҚАЛАРИ **223**
ШУҲРАТ ЁДГОРОВИЧ ҚУДРАТОВ

РОЛЬ И МЕСТО ИСЛАМА В ПОСТ-АТЕИСТИЧЕСКИХ ЦЕНТРАЛЬНО-АЗИАТСКИХ ГОСУДАРСТВАХ **229**
НАЗИРА УМАРОВНА КУРБАНОВА

İSLÂM MEDENİYETİNİN İNŞASINA GİDEN YOLDA BUHARA **239**
HASAN KURT

КУЛЬТУРА ЭПОХИ ЗОЛОТОЙ ОРДЫ (1226-1502) **243**
АЙБОЛАТ КАЙРИСЛЯМОВИЧ КУШКУМБАЕВ

РОЛЬ МУСУЛЬМАНСКОГО ДУХОВЕНСТВА В СОЦИАЛЬНОЙ ЖИЗНИ СРЕДНЕАЗИАТСКОГО ОБЩЕСТВА КОНЦА XIX – НАЧАЛА XX ВЕКА **253**
НАДИРА РАХМАНОВНА МАХКАМОВА

SHOHRUX DAVRIDA SHAKLLANGAN TARIXIY ASARLARNI BEZASH SAN'ATIDAN BIR O'RNAK: KULLIYOT-I TARIXIY **263**
GULZODA MAKHMUDJONQIZI MAKHMUDJONOVA

"ЗУБДАТУ-Т-ТАВОРИХ" ВА "ШАЖАРА-ЙИ ХОРАЗМШОҲИЙ" АСАРЛАРИНИНГ ЧОҒИШТИРМА ТАДҚИҚИ **269**
ҲИЛОЛА БАҲОДИРОВНА НАЗИРОВА

BUHARA'DA İSLÂM DÖNEMİ MİMARİSİ **279**
ARAS NEFTÇI

АРАБОГРАФИЧЕСКОЕ КНИГОПЕЧАТАНИЕ В МУСУЛЬМАНСКИХ РЕГИОНАХ РОССИЙСКОЙ ИМПЕРИИ В XIX – НАЧАЛЕ XX ВЕКА (тематический обзор) **283**
МИЛЕНА НУРИЕВНА ОСМАНОВА

НАЛОГОВАЯ ПОЛИТИКА РОССИЙСКОЙ ИМПЕРИИ В ТУРКЕСТАНЕ В ПЕРИОД К.П. ФОН КАУФМАНА **293**
ДИЛШОД СУННАТУЛЛА ЎҒЛИ ПИРМАТОВ

ИСТОРИОГРАФИЯ СРЕДНЕАЗИАТСКО-ОСМАНСКИХ ВЗАИМООТНОШЕНИЙ В XVI–XVIII ВЕКАХ **301**
ФАРРУХ АБДУМЎМИНОВИЧ РАЗАКОВ

ЗАҲИРИДДИН БОБУР САЛТАНАТИДА ЗАРБ ҚИЛИНГАН ТАНГАЛАР ХУСУСИДА **309**
АЗИЗЖОН АЗИМОВИЧ ШАРИПОВ

ИСЛАМИЗАЦИЯ ЧАГАТАЙСКОГО УЛУСА КАК ВАЖНЫЙ ФАКТОР УКРЕПЛЕНИЯ ГОСУДАРСТВЕННОСТИ В КОЧЕВОЙ СТЕПИ **315**
ТОҲИР СУННАТ ЎҒЛИ ШОКИРОВ

XX АСР БОШЛАРИДА ТУРКИСТОНДАГИ МАҲАЛЛИЙ БОЙЛАРНИНГ ХАЙРИЯ ВА ҲОМИЙЛИК ИШЛАРИ ХУСУСИДА **323**
ЁҚУБЖОН РАФИҚОВИЧ ТАЙРОНОВ

ТАРИХИЙ МАНБАЛАРДА МУҲАММАД ШАЙБОНИЙХОННИНГ ПОРТРЕТЛАРИ **331**
ДОСТОНЖОН БЕКНАЗАР ЎҒЛИ ТОЖИЕВ

ЖАЛОЛИДДИН РУМИЙ “МАСНАВИЙИ МАЪНАВИЙ” АСАРИ ШАРҲЛАРИНИНГ ГЕОГРАФИЯСИ **343**
ИРОДА АМАНУЛЛАЕВНА УМАРОВА

“РАШАҲОТ АЙНУ-Л-ҲАЁТ” АСАРИ ҚЎЛЁЗМАЛАРИ ВА ТОШБОСМАЛАРИНИНГ ТАҲЛИЛИ **349**
БАҲРИДДИН САФАРОВИЧ УМУРЗОҚОВ

БЎЛИМ II. ИСЛОМШУНОСЛИК
STATE POLICY OF THE SOVIET GOVERNMENT IN THE RELIGIOUS SPHERE IN KYRGYZSTAN IN THE 1920-1930s **359**
ZUKHRA AMERAKULOVNA ALTYMYSHOVA

ШАМСИДДИН МУҲАММАД КЎҲИСТОНИЙНИНГ ИЛМИЙ МЕРОСИ **369**
ҲАМИДУЛЛА АБДИРАҲИМОВИЧ АМИНОВ

В. Л. ВЯТКИН ТАДҚИҚОТЛАРИДА ХОЖА АҲРОР ФАОЛИЯТИНИНГ ЁРИТИЛИШИГА ДОИР **377**
МИРЗАБАХРОМ АБДУҚАҲҲОРОВИЧ БОТИРОВ

ФАХР АЛ-ИСЛОМ АЛ-ПАЗДАВИЙ ВА УНИНГ ИЛМИЙ МЕРОСИ **383**
САИДАҲМАДХОН САМАТХОНОВИЧ ҒАЙБУЛЛАЕВ

XORAZMLI KUBRAVIY SHAYX: KAMOL AD-DIN HUSAYN AL-XORAZMIY VA UNING MAVLONONING “MASNAVIY”SIGA SHARHI **391**
SÜLEYMAN GÖKBULUT

МАТЕРИАЛЫ ПЕРЕПИСКИ А. Н. САМОЙЛОВИЧА КАК ИСТОЧНИК ПО “МУСУЛЬМАНСКОЙ СУБЪЕКТИВНОСТИ” **397**
АНТОН РОБЕРТОВИЧ ИХСАНОВ

ТАҚИЮДДИН ИБН АБДУЛҚОДИР ҲАНАФИЙ ВА УНИНГ “ТАБОҚОТ АС-САНИЙЙА” АСАРИ **409**
МАДИНА ТЎРАБОЙ ҚИЗИ ЖЎРАЕВА

МИСР АРАБ РЕСПУБЛИКАСИДА ИСЛОМ ТАШКИЛОТЛАРИНИНГ ПАЙДО БЎЛИШИ **415**
ГЎЗАЛ ШУҲРАТ ҚИЗИ КАДИРОВА

ИСБИДЖАБСКИЙ ПРАВОВЕД И ЕГО ПРОИЗВЕДЕНИЕ **425**
НУРЛАН ЕВФРАТОВИЧ КАЙРБЕКОВ

ПРЕДВАРИТЕЛЬНОЕ ИССЛЕДОВАНИЕ ПЕРЕВОДА КОРАНА И ТАФСИРА ТАРАЗИ – ОТ АНАЛИЗА ТЕКСТА К ИСТОРИИ ЕГО БЫТОВАНИЯ **439**
ФИЛИПП РОМАНОВИЧ ХУСНУТДИНОВ

ДЕРБЕНТ – РАННЕ-СРЕДНЕВЕКОВЫЙ ИСЛАМСКИЙ ЦЕНТР КАВКАЗА **449**
ШАРАФЕТДИН АРИФОВИЧ МАГАРАМОВ

“КАШФ АЗ-ЗУНУН” АСАРИДА ҚАЙД ЭТИЛГАН МАРКАЗИЙ ОСИЁЛИК ОЛИМЛАР ҲАҚИДА **459**
ДИЛЁРА ШАВКАТОВНА МАҲКАМОВА

ЦЕХОВЫЕ ОРГАНИЗАЦИИ РЕМЕСЛЕННИКОВ В РАБОТЕ АЛ-ИСБИДЖАБИ **467**
БАГДАТ МАХАНОВИЧ МАНАБАЕВ

FARG’ONA VODIYSIDAGI KARASKAN SAYYIDLARI BIOGRAFIYALARINI TIKLASH **473**
MAFTUNA MURODILLAQIZI MIRZAYEVA

ДЖУНГИ КАК ВАЖНЫЕ ИСТОЧНИКИ ПО ИЗУЧЕНИЮ ИСТОРИИ ПРАВА В КОКАНДСКОМ ХАНСТВЕ **481**
САИДАКБАР АБДУРАШИДОВИЧ МУХАММАДАМИНОВ

АБУ-Л-БАРАКОТ АН-НАСАФИЙНИНГ “АЛ-МУСТАСФО” АСАРИ – ҲАНАФИЙ ФИҚҲИГА ОИД МАНБА **487**
БЕКЗОДБЕК МУРОДЖОН ЎҒЛИ МУХТАРОВ

ПИСЬМЕННОЕ НАСЛЕДИЕ УЧЕНЫХ БУХАРЫ **493**
АШИРБЕК КУРБАНОВИЧ МУМИНОВ

ХОРИЖ ТАРИХШУНОСЛИГИДА БОБО КАМОЛ ЖАНДИЙ ШАХСИЯТИ **499**
ХУРШИДА БАҲОДИРОВНА НАЗИРОВА

САЪДУДДИН ТАФТАЗОНИЙНИНГ АҚИДАВИЙ МАСАЛАЛАРНИ ТАСНИФЛАШ ВА ДАЛИЛЛАШ УСЛУБИ **507**
ЎКТАМ БАЗАРБАЕВИЧ ПАЛВАНОВ

O’RTA OSIYODA SUFISMNING PAYDO BO’LISH SHARTLARI **519**
KAMILJAN RAHMATOVICH RAHIMOV

ИБН МУҚАФФАНИНГ “АЛ-АДАБ АЛ-КАБИР” АСАРИДАГИ ҲУКМДОРЛИК ОДОБИГА ОИД ҒОЯЛАР ТАҲЛИЛИ **529**
САРВАР АТАБУЛЛО ЎҒЛИ САИДОВ

ТАТАРСКИЙ БОГОСЛОВ ХАСАН ПОНОМАРЕВ И ЕГО ОКРУЖЕНИЕ: ИНТЕЛЛЕКТУАЛЬНАЯ БИОГРАФИЯ В КОНТЕКСТЕ КУЛЬТУРНЫХ И ПОЛИТИЧЕСКИХ ИЗМЕНЕНИЙ КОНЦА XIX – ПЕРВОЙ ТРЕТИ XX ВВ. **535**
ПАВЕЛ СЕРГЕЕВИЧ ШАБЛЕЙ

‘ANBAR ĀNĀ QIYOFALARI: MUQADDAS AYOL HAQIDAGI ASRLAR OSHA YETIB KELGAN HIKOYATLAR **541**
AZIZA ABDUMALIKOVNA SHANAZAROVA

ХИВА ХОНЛИГИ ҲУЖЖАТЛАРИДАГИ ЭКСПЛИКАЦИОН МАТНЛАР ТАҲЛИЛИ **555**
МАФТУНА БАҲОДИР ҚИЗИ ШОКАМОЛОВА

ҚУРТУБА ШАҲРИНИНГ ИСЛОМ ЦИВИЛИЗАЦИЯСИДА ТУТГАН ЎРНИ **561**
ОЙБЕК ХАЙРУЛЛО ЎҒЛИ СОТВОЛДИЕВ

ИСЛОМ МАДАНИЯТИДА ДУНЁВИЙЛИК ВА ДИНИЙЛИК: АУТЕНТИК ЁНДОШУВ (Мирзо Улуғбек ва Али Қушчи мисолида) **567**
ЖАҲОНГИР АБДУВОҲИД ЎҒЛИ ТОҲИРОВ

İSLÂM DÜNYASINDA SONRAKİ NESİLLERİN GÖZÜNDE HOCA BAHÂEDDİN NAKŞBEND **579**
NECDET TOSUN

МАҲМУД ЗАМАХШАРИЙНИНГ “РАБИЪ УЛ-АБРОР” АСАРИ ҲАҚИДА БАЪЗИ МУЛОҲАЗАЛАР **591**
ЛАЗИЗ АБДИВАЛИ ЎҒЛИ ТЎРАЕВ

ИМОМ БУХОРИЙНИНГ “АТ-ТАРИХ АЛ-КАБИР” АСАРИДА САҲОБИЙЛАРГА ОИД МАЪЛУМОТЛАРНИНГ БАЁН ЭТИЛИШИ **597**
НЎЪМОНЖОН НАСИБЖОНОВИЧ ТЎРАЕВ

БЎЛИМ III. ФИЛОЛОГИЯ

“HUSN-U DIL” DOSTONIDA KITOBAT SAN’ATINING O‘RNI **605**
OLMOSXON ILHOMJONQIZI ABDURAHMONOVA

АБУ ЯЪҚУБ САККОКИЙНИНГ “FA‘ĀLI” ҚОЛИПИ ҲАҚИДАГИ ЎЗГАЧА ҚАРАШЛАРИ ХУСУСИДА **611**
АКМАЛХОН АҲМАД ЎҒЛИ АКМАЛХОНОВ

“ТАЗКИРАИ МАЖЗУБ” – МАНОҚИБ ЖАНРИДАГИ МАНБА **619**
НАИМА ХОЛБЕКОВНА АЛИҚУЛОВА

НАВОИЙ ШАРАФЛАГАН САЙЙИД АСИЛ КИМ ЭДИ? **627**
РУСТАМЖОН МАДИЕВИЧ ДЖАББОРОВ

“ТЕРМА ДЕВОН” ЁКИ НАВОИЙ “НАВОДИР УН-НИҲОЯ”СИНИНГ СЎНГГИ РЕДАКЦИЯСИ? **637**
АФТОНДИЛ САДИРХОНОВИЧ ЭРКИНОВ, ОЙСАРА РУСТАМОВНА МАДАЛИЕВА

ҚУЛ СУЛАЙМОН БОҚИРҒОНИЙ БИОГРАФИЯСИНИ ЎРГАНИШ **673**
МАРЯМ МАЛИКОВНА ЭШМУҲАММЕДОВА

“ҲАДОЙИҚ УС-СЕҲР” ВА “ФУНУН УЛ-БАЛОҒА” АСАРЛАРИДАГИ АДАБИЙ САНЪАТЛАРНИНГ ҚИЁСИЙ ТАҲЛИЛИ **679**
ЗУҲРА ОБИДХОН ҚИЗИ ҚОДИРОВА

XIV АСРДА ИЖОД ҚИЛГАН ОТА-БОЛА ФИЛОЛОГЛАР **685**
АКРАМ ТАИРОВИЧ ҲАБИБУЛЛАЕВ

XIX АСР ХОРАЗМ АДАБИЙ МУҲИТИ РУС АКАДЕМИГИ А. Н. САМОЙЛОВИЧ НИГОҲИДА **691**
ГУЛНОЗ ИСКАНДАРОВНА ХАЛЛИЕВА

“LUG’OTI SALOS” – TA’LIM TADQIQOTLARI UCHUN MUHIM MANBA SIFATIDA **697**
ODINAXON OYBEKQIZI MUMINOVA

ЗАМОНАВИЙ АРАБ ВА ЎЗБЕК ҲИКОЯЛАРИДА “ЮСУФНОМА” МАВЗУСИ (Иброҳим Аслон, Закария Тамер ва Улуғбек Ҳамдам, Исожон Султон ҳикоялари мисолида) **703**
ДИЛАФРУЗ ЗОҲРИДДИНОВНА МУХИДДИНОВА

“ДЕВОНУ ЛУҒАТИ-Т-ТУРК”ДАГИ ШЕЪРЛАРДА ТАШБИҲ САНЪАТИ **711**
ГАВҲАР ОМОНОВНА РАҲМАТОВА

“КАНЗ УЛ-КУТТАБ” ТАЗКИРАСИДАГИ *РАСАИЛ* ЖАНРИ НАМУНАЛАРИ **717**
ҲУЛКАР МЎМИНЖОНОВНА СУЛАЙМОНОВА

ҚАДИМГИ ТУРКИЙ БИТИГЛАРДАГИ ФОРМУЛЯРЛАР ВА СТЕРЕОТИП БИРЛИКЛАР **723**
ШАҲНОЗА АБДУМАЖИДОВНА ТЎЛАГОНОВА

ОСОБЕННОСТИ АРАБСКОГО ЯЗЫКА В СОЦИАЛЬНЫХ СЕТЯХ **729**
НОДИРАХОН ИСАМАТОВНА УМАРОВА

Авторлар **735**
Иллюстрациялар **743**

RESTORING THE BIOGRAPHIES OF KARASKAN SAYYIDS IN THE FERGHANA VALLEY

FARG‘ONA VODIYSIDAGI KARASKAN SAYYIDLARI BIOGRAFIYALARINI TIKLASH

Maftuna Murodillaqizi Mirzayeva[1]

The Karaskan *sayyids* were the family of well-known *'alavi sayyids* in the Ferghana Valley. This study is based on the genealogy materials of this family. Its genealogy is still unknown to this day. However, originals and copies of decrees from the 16th–19th centuries survived. They have been preserved by the families of various members of the *sayyidi* house. These documents were issued and signed by various local rulers.

The article analyzes the genealogy of Karaskan *sayyids* and describes their role in society based on new biographical information taken from discovered local materials.

Markaziy Osiyodagi ijtimoiy-siyosiy jarayonlarda faol ta'sir ko'rsatgan, alohida e'tirof etilgan xonadonlar mavjud bo'lib, ular sayyid, xo'ja, to'ra, shayx, amirzoda, xudovandzoda, eshon, maxdum kabi nomlar bilan atalib kelingan. Ularning orasida nufuzi balandi sayyidlar bo'lib, bu nom ostida payg'ambarimiz Muhammad (s.a.v.) avlodlari nisbatan qo'llanilgan faxriy nom tushunilgan. Dastlab payg'ambar alayhissalomga qarindoshligi bor shaxslar yoki Abdulmuttalib ibn Hoshim xonadoni vakillari bu toifaga mansub hisoblangan bo'lsa, keyinroq ushbu atama Hazrat Alining (r.a.) farzandlari Hasan (r.a.) va Husayn (r.a.) avlodlariga nisbatan qo'llanila boshlangan. Ular hasaniy va husayniy sayyidlari deb yuritiladi. Markaziy Osiyoda keng tarqalgani husayniy sayyidlar bo'lib, ular ham bir nechta xonadonlarga bo'linadi. Ariziy sayyidlari, Ubaydulloh A'raj avlodlari, kuloliy, dahbediy, sayyidatoyi, jo'yboriy, mirhaydariy, gul-i so'rx sayyidlari xonadonlari O'rta Osiyoda yuqori mavqega ega husayniy sayyidlari xonadonlari hisoblangan [3:27].

Cho'qon Valixonov Qo'qon xonligidagi sayyidlar va xo'jalarga mansub oltita katta xonadonlar mavjud bo'lganligini qayd etgan. U eslatib o'tgan

1 Tashkent State University of Oriental Studies, Undergraduate Student / Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti, magistrant

xonadonlar hazrat Umar (r.a.) avlodlari hisoblangan Shayx Ahmad Sirxindiy xonadoni, "Qoshgʻar xoʻjalari", sof sayyidlar avlodi hisoblangan "Turkiston xoʻjalari", Shayx Xovandi Tohur avlodlari boʻlib, bulardan tashqari boshqa xoʻjalar xonadonlari borligini ham aytib oʻtgan [5:27].

Biz murojaat qilmoqchi boʻlgan xonadan Fargʻona vodiysidagi mashhur sayyidzoda Sulton Sayyid avlodlari hisoblangan Karaskan sayyidlaridir. Mazkur xonadonga tegishli hujjatlar oʻtgan asrning 60-yillarida A.Juvonmardiyev ṭarafīdan tadqiq etilgan [1]. Bizning maqsadimiz esa, ushbu xonadon vakillari biografiyasini tiklashdan iborat. Buning uchun ushbu xonadonga tegishli hujjatlar asos qilib olindi. Bu hujjatlar bugungi kunda Oʻzbekiston Milliy arxivi va OʻzR FA Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik instituti fondida saqlanadi. Oʻzbekiston Milliy arxivi fondidagi fondidadagi hujjatlar asl nusxa boʻlib, jami 50 dan ortiq hujjatlarni tashkil etadi. Turkiy va forsiy tillarda bitilgan mazkur hujjatlar yomon ahvolda yetib kelgan, ayrim hujjatlarning parchalari saqlangan [4:63,74 y.j.].

OʻzR FA Abu Rayhon Beruniy nomidagi sharqshunoslik instituti fondidagi "Yorliqlar toʻplami" koʻchirilgan nusxa boʻlib, ular ham turkiy va forsiy tillarda. Asl nusxadan koʻchirma olish XIX asning 70-yillardida amalga oshirilgan [1:67]. Mazkur hujjatlar yorliqlar va pattalardan iborat. Sulton Sayyid avlodalariga Karaskan kenti, Adak, Govxona, Qizilrabot ekin yerlari suyurgʻoli, Sulton Sayyid mozori mutavalliligi berilgan hamda turli soliqlardan ozod etilganligi hujjatlarda aks etgan. Abdullajon Juvonmardiyev hujjatlardan Fargʻona vodiysining yer-suv masalalariga oid tarixini oʻrganishda foydalangan. Ushbu hujjatlar suyurgʻol yorliqlari boʻlib, ular Karaskan[1] qishlogʻidagi Sulton Sayyid mozorining shayxlari nomiga Qoʻqon xonlari, Buxoro amirlari, viloyat hokimlari tomonidan berilgan. Hujjatlar XV–XIX asrlarga oid boʻlib, lekin ular orasida nasabnoma mavjud emas [1:7]. Sulton Sayyid Karaskoniyning Hazrat Ali ibn Abu Tolibgacha ulangan nasabi Oʻ.Sultonov izlanishlari davomida boshqa bir xonadonga tegishli nasabnoma asosida tiklangan. Unga koʻra nasabnoma quyidagicha berilgan: Sulton Sayyid Karaskoniy ibn Sayyid Jaloliddin ibn Sayyid Muhammad – Murodbaxsh Valiy ibn Mavlono Abulgʻoziy ibn Sayyid Ali Jaʻfar ibn Mavlono imom Naqiy ibn imom Muhammad Taqiy ibn imom Muso Kozim ibn Imom Boqir ibn Ali Asgʻar [3:30].

Endi bevosita hujjatlarda aks etgan shaxslarning biografiyasiga oid maʻlumotlar tahliliga oʻtsak. "Yorliqlar toʻplami"dagi 146 hujjatdan eng avvalgisi 30 raqamli yorliq boʻlib, Abulgʻozi sulton amir Temur Ahmad bahodir tomonidan 891/1486 yil berilgan [2:30 h.]. Eng soʻnggisi hijriy 1292

1 Karaskan – Namangan viloyati Chortoq tumanida joylashgan qishloq.

yil rajab (milodiy 1876 yil avgust) oyida so'nggi Qo'qon xoni Nasriddinbek tomonidan Jaloliddinxo'jaga berilgan [2:1 h.]. Ushbu davr davomida Sulton Sayyid avlodlariga Karaskan mavzeyi, Adak, Govxona, Qizilrabot mavzelaridagi ekin yerlari suyurg'oli inoyat etilgan va turli soliqlardan ozod bo'lishgan. Ushbu hudud qoziligi ham ularning ayrim vakillari tomonidan amalga oshirilgan.

Hujjatlarda ularning nasabnomasini tiklashga ko'mak beruvchi qarindoshlik holatlarini ko'rsatuvchi ma'lumotlar kam uchraganligi bois ushbu xonadon tarixini hujjatlardagi yillar ketma-ketligi asosida berishga harakat qildik.

Hujjatlardan ma'lum bo'ladiki, dastlabki yorliq sayyid Fozil Aliga berilgan. Unga Abulxayr Sevinch Sulton [4:26 y.j.; 2:92 h.], Muzafariddin sulton Mahmudshoh bahodir [2:95 h.], Sulton Saidxon[2:91 h.] tomonidan 919-940/1513-1534 yillar oralig'ida berilgan yorliqlar bo'lib, ularda Fozil Aliga Karaskan mavzeyi, Adak va Govxona ekin yerlari suyurg'ol tarzida berilgani qayd etilgan. Lekin Abulg'ozi sulton amir Temur Ahmad bahodir tomonidan 891/1486 yil berilgan hujjatdan ma'lum bo'ladiki, Fozil Ali vafotidan so'ng Karaskan kenti va Adak suyurg'oli uning o'g'li Go'yo Muhammadxo'jaga suyurg'ol qilib berilgan. Abulg'ozi Navro'z Ahmad bahodir tomonidan Go'yo Muhammadxo'jaga otasi Fozil Ali dasturi bilan uch suyurg'ol yorliq berilganligi ma'lum [2:55, 58, 105 h.]. Abulg'ozi sulton amir Temur Ahmad bahodir tomonidan berilgan yorliq mazmuni bir-biriga yaqin. Abulg'ozi sulton amir Temur Ahmad bahodir Navro'z Ahmadxon bo'lishi mumkin. Navro'z Ahmadxondan so'ng uning o'g'li Muhammad Darvish tomonidan 960/1552-53 yil Go'yo Muhammadxo'jaga Karaskan mavzeyini otasi va o'zining dasturi bilan darbast[1] suyurg'ol etib berilgan. Demak, Navro'z Ahmadxon va Muhammad Darvish davrida Fozil Ali vafot etgan bo'lib, yorliqlar Go'yo Muhammadxo'ja nomiga berilgan. Fozil Aliga berilgan yorliqlar esa 1486 yildan so'ng berilgan. Agar 1486 yil berilgan hujjat Navro'z Ahmad bahodir tomonidan berilgan bo'lsa, hujjatning yilini yozilishida xatolik ketgan bo'lishi mumkin.

Fozil Alidan so'ng berilgan yorliqlar uning o'g'illari Go'yo Muhammadxo'ja va Abulqosimga tegishli. Sayyid Go'yo Muhammadxo'jaga berilgan yorliqlar 18 bo'lgani holda, Sayyid Abulqosimga esa faqat bir yorliq 973/1565-66 yilda berilgan. Mazkur yorliq ham sayyid Go'yo Muhammadxo'ja va sayyid Abulqosim nomiga inoyat etilgan. Quyida ushbu yorliqdan parcha keltiramiz:

---

1 *Darbast* – (fors.) "butunlay", "o'zgarmas", "bekam-ko'st", "boshqaning egaligidan tashqari". Hujjatlarda umrbod qaytib olmaslik va barcha amaldorlarga "eshigi berk" degan yo'l bilan suyurg'olni ifodalagan. Qarang: [1: 13-14].

"... Karaskan boshlig' mulk, asbob va yobisi suyurg'ol va langar va sajjodalarini o'g'ullari sayyid Go'yo Muhammad va sayyid Abulqosim boshlig'larg'a bori yangidan boshlab inoyat qilib, otalari dasturi bilan berildi... Har vajhdin Karaskan va g'ayridin hosil bo'lsa, bu uch og'a-ini barobar hissa qilib maoshlarig'a sarf qilsunlar" [2:47 h.].

Bundan ma'lum bo'ladiki Fozil Alining uch o'g'li bo'lgan. Yana bir hujjat asosida ushbu ma'lumotga aniqlashtirishga harakat qilamiz. Axsikent hokimi Navro'z Ahmadxonning o'g'li Do'st Muhammad bahodir tomonidan sayyid Zohidga 975/1567-68 yilda berilgan yorliqda xoqonlar xoni (Suyunchxo'jaxon nazarda tutilgan) uning otasiga nishon berganligi qayd etilgan [2:87]. Ushbu hujjatda sayyidlar sarasi, ya'ni sayyid Zohid dunyodan o'tgan mag'firatlik sayyid (Sayyid Fozil Aliga ishora qilingan) mavjud hujjatlardan Suyunchxo'jaxon faqat Fozil Aliga 928/1521-22 yilda yorliq berganligi ma'lum. Ushbu ikki shaxsning yashagan davri va yuqoridagi hujjatdagi ma'lumot asosida sayyid Zohid sayyid Fozil Alining uchinchi o'g'li bo'lishi mumkin.

Sayyid Go'yo Muhammadxo'ja va sayyid Zohidga Navro'z Ahmadxon, Navro'z Ahmadxonning o'g'illari Muhammad Darvish bahodir va Do'st Muhammad bahodir, Abulg'ozi Muhammad Umar bahodirxon, Abulfath Hazora Muhammad sulton tomonidan yorliqlar berilganligi ushbu ikki sayyidning o'z davrida qolgan sayyidlarga (sayyid Karimxo'ja, sayyid Qutbiddinxo'ja, sayyid Sharafiddin) nisbatan mavqei yuqori bo'lganligini ko'rsatadi [2:105,37, 44, 122 h.; 4:65 y.j.]. Shuningdek ular *marfu'ul qalam*[1] etilgan sayyidlardan edi.


XVII asrda sayyid Fazlullohxo'ja, sayyid Fuzaylxo'ja, sayyid Fathulloxo'ja, sayyid Afzalxo'ja, sayyid Nasrulloxo'ja nomlariga Nizomiddin Qutluq Muhammad otaliq, Qo'qon beklaridan Abulfath Qosim Muhammad bahodir, Abulfath Imomquli Muhammad bahodir sulton (Imomqulixon) tomonidan yorliqlar taqdim etilgan [4:70 h.; 2:33, 94, 111 y.j.]. Sayyidlarga hech kim daxl etmasligi, ranjitmasligi, ularni hurmat qilish joizligi alohida ta'kidlangan. Ayrim hujjatlar sayyid Lutfullo, sayyid Kamoliddin, kim tomonidan berilganligi ma'lum emas [4:52, 53 y.j.; 2:66, 63 h.]. Ushbu sayyidlar nomlariga 18 ta yorliq taqdim etilgan bo'lib, lekin ularda sayyidlarning bir-biriga qarindoshchiligiga oid ma'umotlar qayd etilmagan. Shu sababli mazkur shaxslarning qarindoshligini aniqlay olmadik. Abdullajon Juvonmardiyev o'z tadqiqotlarida sayyid Fathulloxo'ja va sayyid Afzalxo'ja sayyid Fazllullohxo'janinng "ini"lari ekanligini ma'lum qiladi [1:122].

1 *Marfu'ul qalam* – (arab.) "biror narsani to'lashdan ozod bo'lish", soliqlar zimmasidan ko'tarilgan, ya'ni soliqlardan ozod etilgan.

Sayyidlar o'zlariga berilgan yerda qozilik va hokimlik vazifasini ham bajargan. Qozilik mansabi sayyid Kamoliddin va Sayyid Nasrulloxo'jaga ta'alluq bo'lgani holda, Sayyid Nasrullo'ja Karaskon mavzeining hokimi vazifasida ham bo'lgan [2:66, 73 h.].

XVIII asrda Muhammad Rofexo'ja, Sayyid Abdussoneyxo'ja, Abulhafizxo'jaga yorliqlar taqdim etilgan. Shu davrdan boshlab sayyidlarga berilgan yorliqlarda suyurg'ol, darbast atamalari uchramaydi.

Nizomiddin Muhammad Erdonbiyxon tomonidan Muhammad Rofexo'jaga berilgan bir yorliq mavjud bo'lib, mazkur yorliqda uning ota-bobolaridan tortib hazrat Sulton Sayyid avliyo mozorining mutavallisi bo'lib kelganligi, shu sababadan Muhammad Rofexo'jani ham ushbu mozorning mutavallisi etib tayinlanganligi qayd etilgan [2:29]. Muhammad Rofexo'jaga berilgan yorliqning asl nusxasi mavjud emas. Sayyid Abdussoneyxo'ja nomiga Qo'qon xoni Olimxon (1799-1810 yillar)ning sarkardasi Irisqulibek, Shohruhbiyning nabirasi Muhammad Sulaymon sulton (olti oy xon bo'lgan) tomonidan yorliqlar taqdim etilgan [2:25, 29 h.]. Bundan ma'lum bo'ladiki, sayyid Adussoneyxo'ja ushbu davrda sayyidlar xonadonining mavqei yuqori bo'lgan sayyidlardan biri edi.



XIX asrda Muhammad Homidxo'ja, eshon Mo'minxo'ja, eshon Muhammadxo'ja, sayyid Muhammad Sharifxo'ja, sayyid Jaloliddinxo'jaga

taqdim etilgan. Qoʻqon xoni Umarxon (1810-1822 yillar)ning sarkardasi Muhammad Sayidquli tomonidan sayyid Muhammad Homidxoʻjaga, Umarxon va uning oʻgʻli Muhammad Alixon (1822-1842 yillar) tomonidan sayyid Moʻminxoʻjaga, Xudoyorxon, Muhammad Mallaxon (1858-62 yillar), sulton Sayidxon (1863-65 yillar), soʻnggi Qoʻqon xoni Nasriddinxon tomonidan yorliqlar taqdim etilgan., Oʻz saltanatlarining iqboli, doimiyligi duosi bilan mashgʻul boʻlishlari uchun ularga imtiyozlar berganliklarini hujjatlarda maʼlum qilishgan. Ushbu davrda bevosita markaziy hokimiyat tomonidan berilgan hujjatlarning koʻpayganligiga guvoh boʻlishimiz mumkin. Bu esa ushbu xonadonning bu davrdagi taʼsiri va obroʻsi oshganligidan dalolat beradi [2:14, 18, 19 h.].

Mazkur davrdagi hujjatlarda ham yuqorida zikr etilgan sayyidlarning bir-biriga qarindoshligi masalasiga oid maʼlumotlar qayd etilmagan. Faqatgina sayyid Jaloliddinxoʻjaning otasi kim boʻlganiligi masalasiga hujjatlar asosida aniqlik kirita oldik.

"Yorliqlar toʻplami"da sayyid Jaloliddinxoʻja nomiga 13 ta yorliq hamda hokimlar va amlokdorlar tomonidan berilgan 23 ta pattalar mavjud boʻlib, yorliqlar 1226-1292/1811-1875 yillar oraligʻida berilgan [5:1, 20 h.]. Mazkur hujjatlar tahliliga qaraganda, sayyid Muhammad Sharifxoʻja eshon Sayyid Jaloliddinxoʻjaning otasi boʻlgan ekan [2:1 h.]. Lekin uning oʻzining nomiga berilgan yorliq mavjud emas. Hujjatlar asosida shuni aytishimiz mumkinki, sayyid Jaloliddinxoʻja ushbu xonadonning imtiyozga ega boʻlgan soʻnggi vakilidir. Qoʻqon xonligi 1876 yil tugatilingandan keyin. Rossiya podsholigi humronligi davrida vaqf yerlari tugatilina boshlandi. Bu holat sayyidlar xonadonlariga salbiy taʼsir oʻtkazdi.

Xulosa qilib aytganda, XVI–XIX asrlarda Karaskan sayyidlari xonadoni ijtimoiy-siyosiy tarixiy jarayonlarning faol ishtirokchisi boʻlib kelgan. Ushbu sayyidlar xonadoni Buxoro xonligi va Qoʻqon xonligi davrida yuqori mavqega ega xonadonlardan boʻlgan. Yuqorida keltirligan maʼlumotlardan aniqlashadiki, sayyidlarning barchasi ham birdek imtiyozga ega boʻlmagan. Sayyidlar turli davrlarda turlicha imtiyozga ega boʻlib, bu ularning jamiyatdagi mavqeini koʻrsatgan. Masalan, sayyid Zohidga Karaskan mavzei, Adak, Govxona va Qizilrabot ekin yerlari suyurgʻoli berilgan hamda 32 amaldan ozod etilgani holda, sayyid Fuzaylxoʻjaga esa faqat Govxona va Adak ekin yerlari suyurgʻoli berilgan. Ushbu xonadon vakillari haqidagi biografik maʼlumotlarni jamlash va tadqiq etishda qoʻlimizda mavjud manbalardan foydalandik. Kelgusi tadqiqotlarda ushbu xonadon tarixi, nasabi va ularning keyingi taqdiriga aniqlik kiritilishi mumkin.

Adabiyotlar:

1. Жувонмардиев А. XVI–XIX асрларда Фарғонада ер-сув масалаларига доир. Тошкент, 1965. 282 б.
2. Ёрлиқлар тўплами. ЎзР ФА ШИ. Қўлёзма 1644.
3. Султонов Ў. А. Ўрта Осиёда саййидлар хонадонининг шаклланиши хусусида // Имом Бухорий сабоқлари. Тошкент, 2018. № 1. Б. 27-30.
4. Ўзбекистон Миллий архиви. O'zbekiston Milliy arxivi. 323-тарихий жамғарма, 2-рўйхат.
5. Islamization and Sacred Lineages in Central Asia: the Legacy of Ishaq Bab in Narrative and Genealogical Traditions: Opening the Way for Islam: The Ishaq Bab Narrative, 14th-19th Centuries / Edited by Devin DeWeese and A. K. Muminov. Almaty: Daik-Press 2013. Vol. 1. 640 p.